

## **KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA BADIY ESTETIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY MASALALARI**

**Xayrullayeva Zarnigor Sarvar qizi**

**ISFT instituti o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7139021>**

Annotatsiya. Klasterli yondashuv asosida o'quvchilarda badiiy estetiklikni rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik xususiyatlari, texnologiyasi, metodlari, badiiy estetiklikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonning ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanadi. Ta'limda uzviylikni, tarbiyada uzluksizlikni ta'minlash hozir ham taktik va strategik maqsad bo'lib qolmoqda. Bu jarayon "Ilmiy-Ijodiy-Ma'naviy muhit barqarorligi" tamoyili ustuvor bo'lgandagina samarali natija berishi mumkin. Shunday ekan, pedagogik ta'limga nisbatan dunyoqarash va yondashuvni o'zgartirish, uning asoslarini yangicha qarash va mazmun bilan boyitish maqsadga muvofiq. Bu vazifani muayyan qismini estetik tarbiya klasteri orqali amalga oshirish mumkin.

Pedagogik texnologiyada klaster puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi davrda estetik tarbiya klasterining ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

1) globallashuv davri inson faoliyatining maqsadli yo'naltirishga qaratilgan estetik tarbiyaga "yaqin va ishonchli sherik" sifatida baho bermoqda. Xususan, uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish ta'limning ijtimoiylashuviga, ayniqsa, ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi kuzatilmoqda. Chunki, bugungi kunga kelib estetikafanining tadqiqot sohasi shunchalik kengaydiki, deyarli barcha sohalarda, jumladan sog'liqni saqlash tizimida-tibbiyot estetikasi, ekologik sohada-ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida-texnika estetikasi(dizayn) kabi sohalarning yuzaga kelgani shular jumlasidandir.

2) jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaktirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda odamlarga, ayniqsa yoshlarga "huzur-halovat va lazzat manbai" sifatida taqdim etilayotgan ma'lumotlarning aksariyati xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmoqlaridagi turli xil saytlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

3) keyingi paytlarda fetishestetikasi (yengil-yelpi, yaltiroq estetika), "Ommaviy madaniyat"ning inson maishiy turmushi bilan bog'liq saytlari shunchalik ko'payib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini o'ldirilishiga olib kelayotganiga guvohmiz. O'quvchilarda bunday g'ayriestetik g'oyalar va ko'rinishlarning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ta'limiy asosni mustahkamlashda estetik tarbiya klasteri yaqin ko'makchi bo'lib xizmat qiladi[23;56-b].

"Klaster" bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan faoliyatlar tizimini nazarda tutadi. Badiiy estetiklikning shakllanishi ham huddi shunday kontseptual asosga ega jarayon bo'lib, uning shakllari, ko'rinishlari, uslublari va vositalari turlicha bo'lsa-da, maqsad shaxsni barkamol qilishdan iborat. Badiiy estetiklik go'zallik, san'at, ma'naviyat, sport, ulug'vorlik, did, his-tuyg'u va tasavvurni o'zida jamlaydi. Bu sohalarda o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs ma'naviy yetuk va barkamollikka erishadi. O'quvchilarning badiiy estetikligini shakllanishi oila, uzluksiz ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ko'ngilochar maskanlar, ommaviy-axborot vositalari, yoshlarning badiiy-ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi. Estetik madaniyat milliy ongini, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, u ulkan ijtimoiy vazifani bajaradi. O'quvchilarda erkin fikrlash, uning atrofida go'zallik yaratishga intilishni rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Shunda u zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladi va unga foyda keltiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги матбаа-ижодий уйи. 2014. –Б. 327-328
2. В.Е. Husanov. Globalashuv jarayonlarida axloq va estetika fanlarining o'rni. "O'zMU xabarlari" jurnali. 2009, №4.
3. E. Umarov. Estetika. Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. Abdulla Sher. Estetika. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 jildlik. Toshkent, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 10-jild.

5. Xayrullayeva Z. S. KLASSTERLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA BADIY ESTETIKLIKNI RIVOJLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 284-288.